

BOSHQARUV RAISI – BOSH DIREKTOR MUROJAATI KORRUPTSIYAGA YO‘L QO‘YMAVLIK!

Aziz kombinatimiz ishchi-xodimlari!

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida barcha sohalarda shaffoflik, adolat tamoyillari asosida faoliyat yuritishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Qonun ustuvorligini ta‘minlash davlatimiz siyosatida muhim yo‘nalishlardan biriga aylangan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish – mamlakatimizda jadal sur‘atlarda olib borilayotgan huquqiy islohotlar sharoitida har bir insonning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish hamda qonun ustuvorligini ta‘minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning barcha huquqiy asoslari yaratilgan. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solib kelmoqda.

Korrupsiya bor joyda haqiqat va adolatga, hech qaysi bir sohaning rivojlanishiga, oldimizga qo‘ygan maqsadimizga erisha olmaymiz. Bu illat qonunning qo‘pol ravishda buzilishidir.

Korrupsiya – bu nafaqat qonunbuzarlik, balki ishonchga xiyonat, adolatga, mehnatga, halollikka qarshi qilingan jinoyatdir. U har qanday tashkilotning rivojiga jiddiy to‘siq bo‘ladi, jamoa ruhiyatini zaiflashtiradi.

Bu xavfli illat kombinatning ichki muhitiga putur yetkazadi, jamoa orasida ishonchni yo‘qotadi va eng yomoni, korxonaning uzoq muddatli rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. U halol ishlayotgan xodimlarning haqqini yemiradi. Korxona obro‘cini pasaytirib, mijozlar va hamkorlar, investorlar bilan munosabatga putur yetkazadi. Bu esa iqtisodiy yo‘qotishlarga olib keladi.

Kombinatimizda korrupsiyaga o‘rin bo‘lishi mumkin emas. Biz ishlab chiqarayotgan mahsulotlar, texnologik jarayonlar, moliyaviy hisob-kitoblar va kadrlar siyosati – bularning barchasi shaffoflik va halollik tamoyillari asosida boshqarilishi shart.

Biz nafaqat yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish, balki halol mehnat orqali jamiyatimizda munosib o‘rnimizni egallashni maqsad qilganmiz.

Qadrli metallurglar!

Korrupsiyaga qarshi kurash faqat huquq-tartibot idoralari xodimlarining emas, hammamizning umumiy burchimiz, fuqarolik mas‘uliyatimiz va insonparvarlik qarzimizdir.

Men, kombinat rahbari sifatida, Sizlarni halol, pok vijdonli va adolatli mehnat qilishga, har qanday shubhali harakatlardan uzoq bo‘lishga, o‘z huquq va majburiyatlaringizni aniq anglab yetishga chaqiraman. Agar Sizga shubhali holatlar ma‘lum bo‘lsa, darhol belgilangan tartibda bu haqda xabar bering. Bundan qo‘rqmang, chunki “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun bu borada to‘liq huquqiy himoyani kafolatlaydi.

Korrupsiya – mamlakatning, jamiyatning, halol mehnatning eng katta dushmani.

Biz faqat shaffof va adolatli muhitdagina chinakam taraqqiyotga erishishimiz mumkin. Mehnatimiz, bilim va sa’y-harakatimiz bilan ishonchli, korrupsiyadan holi va shaffof faoliyat yuritadigan kombinatni barpo etamiz.

Kelajagimiz, farzandlarimizning baxtli hayoti va korxonamiz obro‘si uchun halol, pok, mas‘uliyatli bo‘laylik!

Bahodir ABDULLAEV

“O‘zmetkombinat” AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktori.